

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT

VAZIRLIGI



**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

“KARYERA MARKAZI”

NIZOMI

Asos: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2021-yil 23-iyuldagi 314-sonli buyrug‘i asosida

Toshkent – 2025



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti rektori v.v.b.

 S.X.Madiyev

2025-yil 22-oktabr

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Karyera markazining**

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 16-iyun kuni o‘tkazilgan 34-sonli yig‘ilish bayoni ayrim bandlari ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti (keyingi o‘rinlarda – institut) “Karyera markazi” (keyingi o‘rinlarda – markaz) faoliyatining tartibini belgilaydi.

Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, ta‘lim-tarbiya sohasini tartibga solishga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay‘atining qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari, institut Kengashi qarorlari, institut rektorining buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hamda lokal hujjatlarga asoslanib ish ko‘radi.

Markaz bitiruvchi talabalar soni, ularning ishga joylashishi monitoringi, bitiruvchi talabalarga yirik, o‘rta va kichik davlat va nodavlat korxona va muassasalarida mavjud ish joylari haqida davriy yangilanib boradigan ma‘umot va axborotlarni taqdim etib borish, barcha kurs talabalarini memorandum va shartnomalar asosida amaliyotlarga yo‘llash, tizimda buyrokratik to‘siqlar yuzaga kelishini oldini olish va tahliliy ma‘lumotlarni shakllantirish hamda qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshiruvchi institut tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

II. Markaz tarkibi

1. Markaz boshlig'i, bosh mutaxassisdan iborat.

2. Markaz boshlig'i lavozimiga oliy ma'lumotli, kredit-modul tizimini mukammal biladigan, axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan shaxs tayinlanadi. Markaz boshlig'ining xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:

- markaz ishini tashkil qilish, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, yuklatilgan vazifalarni samarali va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- markaz xodimlari tomonidan mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishini nazorat qilish;
- ish o'rinlari uchun talabalardan talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan ularni xabardor qilib borish;
- ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish orqali bitiruvchilar kasbiy bilimlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligini o'rganish;
- respublika va tegishli hududlar iqtisodiyoti hamda ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan kadrlar tayyorlash, ularni ishga joylashtirish bo'yicha shartnomalar tuzish, shuningdek, ular bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- kadrlarga real ehtiyojlar va bitiruvchilarni yakuniy ishga taqsimlash hamda joylashtirish natijalari haqidagi ma'lumotlarni oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish;
- institutning akademik, ilmiy va kadrlar salohiyatini namoyish qilish va xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish.

3. Markaz bosh mutaxassisi lavozimiga oliy ma'lumotli, kredit-modul tizimini mukammal biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan shaxs tayinlanadi. Bosh mutaxassisning xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:

- bitiruvchilar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish;
- institut talabalari va bitiruvchilarini hozirda mavjud bo'lgan va mehnat

bozorlari talab qilayotgan bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot berish;

- institutda bitiruvchilar uchun "Karyera kuni" axborot-tanishtiruv tadbiri va mehnat yarmarkalarini tashkil etish;

- mehnat bozorida kadrlarga talab va taklif nisbatini e'tiborga olgan holda ta'lim xizmatlari iste'molchilarining ehtiyojlari va imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish.

- ish o'rinlari uchun talabalardan talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan ularni xabardor qilib borish; buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash;

- ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish orqali bitiruvchilar kasbiy bilimlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligini o'rganish;

- respublika va tegishli hududlar iqtisodiyoti hamda ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- ish beruvchilarning ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarga bo'lgan joriy va istiqbolli "buyurtmalar portfeli"ni shakllantirish ommaviy axborot vositalari orqali ish beruvchilarga bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish va institutning veb-saytiga joylashtirish;

III. Markazning maqsadi

4. Markazning maqsadi quyidagilardan iborat:

- talabalarining shaxsiy o'sishi va malakasini oshirishda yordam berish, talabalarining samarali xodim bo'lishiga va ularni o'z sohasida tajribasini oshirishga ko'maklashish;

- jamiyatga salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularga ish topishda yordamlashish, hamkor korxona va tashkilot vakillari har oyda kamida ikki marta kelib, institut talabalarining amaliyot ishlarini amalga oshirishlari uchun tegishli shart-sharoitlarini yaratish;

- talabalarga mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash va ish beruvchilar bilan suhbatdan o'tish usullarini o'rgatish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni

shakllantirish maqsadida "Karyerani rivojlantirish" nomli maxsus (onlayn) kurs tashkil etish hamda nazoratga olish, oliy ta'lim muassasasida talaba va ish beruvchilarni bir-biriga bog'lovchi maqsadlarni o'tashdan iborat.

IV. Markazning vazifalari

5. Markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga kirish uchun rezyumeni tayyorlash va ish beruvchi bilan suhbatdan o'tish usullarini o'rgatish, ishga kirish uchun talab etiladigan hujjatlar bilan tanishtirish;
- o'qishdan bo'sh vaqtlarida mehnat faoliyatini olib borish istagini bildirgan talabalarning rasmiy bandligini ta'minlash choralari ko'rish;
- oliy ta'lim muassasasining ixtisosligidan kelib chiqib, ish beruvchilar bazasini shakllantirish va onlayn platforma bilan integratsiyasini ta'minlash;
- mehnat organlari, ta'lim muassasalari, manfaatdor idoralar va tashkilotlar ishtirokida bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari, Karyera kunlarini muntazam ravishda tashkil etish, korxonalarga rasmiy tashriflar uyushtirish, muvaffaqiyatga erishgan biznes va davlat xizmati vakillari bilan mahorat darslarini tashkillashtirish, talabalarni kelajakda kasbiy faoliyatga qiziqishlarini kuchaytiruvchi tadbirlarni amalga oshirish;
- potensial ish beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash, ular tomonidan taqdim etilgan vakansiyalar va kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qanoatlantirish; talabalar stajirovka va amaliyotini tashkil etish uchun ish beruvchilar bilan doimiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- ish bilan band bo'lgan talabalar hisobini yuritish va ushbu yo'nalishda ularga barcha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- institutning mutaxassislar tayyorlash, bitiruvchilarni ishga joylashtirish institutni muqaddam tamomlagan bitiruvchilarning hozirgi mehnat faoliyati (Karyerasi) to'g'risida hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa tashkiliy materiallarni tayyorlash va nashr qilish;
- ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirib,

ta'lim xizmatlariga qo'yilgan, ya'ni bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy mahoratini (malakaviy sifatlarini) o'rganish hamda ularning ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiqligini aniqlash;

- bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarga talab va takliflar nisbatini o'z ichiga olgan holda ishga taqsimlash obektlari – ta'lim xizmatlari iste'molchilari (ish beruvchi korxonalar, turli mulkchilik shakliga ega bo'lgan tashkilotlar – davlat va mahalliy boshqaruv organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari va hokazo) tuzilmasini baholash, geografik joylashishini aniqlash va guruhlash, potensial imkoniyatlarini tashxis qilish orqali to'liq ma'lumotlar bankini yaratish;

- joriy yilda va o'tgan yillar davomida ishga joylashgan yosh mutaxassislar bilan qayta aloqalar o'rnatish, zarur hollarda ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish, maslahatlar berish hamda mehnat faoliyati natijalarini umumlashtirish;

- ish beruvchilar (iste'molchilar)ga axborotlar vositasida ta'sir ko'rsatish yo'llarini tanlash, ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, radio-televideniye, elektron aloqa, veb-sayt) orqali bitiruvchilar to'g'risida (viloyatlar bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar kesimida) ma'lumotlar e'lon qilinishini, institut veb-saytida joylashtirilishini, ma'lumotlar nashr qilish va ularni iste'molchilar (ish beruvchilar)ga yetkazilishini ta'minlash, reklamalar mazmuni, reklama modullarining xomaki nusxalari, maqolalar matnlari, video va audio yozuvlarining ssenariylarini tayyorlashda ishtirok etish;

- yuqori (bitiruvchi) kurslar talabalarida kasbiy mahorat sifatlarining bakalavr (magistr) ma'lumot darajasiga va ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiq shakllanish jarayonini o'rganish, tahlil qilish hamda marketing izlanishlari natijalari tahlilidan kelib chiqqan holda raqobatbardosh bitiruvchi shaxsini shakllantirish maqsadida fakultetlar, tegishli kafedralar va ilmiy, o'quv-metodik bo'limlarga buyurtmachilar (iste'molchilar) tavsiyalarini taqdim etish;

- turdosh oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlanayotgan raqobatli bitiruvchilarning kasbiy mahorati darajasi, ularning ustunligi va kamchiligini baholash hamda o'z

bitiruvchilari bilan taqqoslash;

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hisobga olgan holda hamda bitiruvchilarning kasbiy mahorati (malakaviy sifatlari)ni yaxshilash maqsadida raqobatbardosh bo'lg'usi mutaxassis shaxsini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklarini namoyish qilish maqsadida oliy ta'lim muassasasining respublika, mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda ishtirok etishini ta'minlash, muassasa hududida ko'rgazma va vitrinali ekspozitsiyalar tashkil etish;

- imzolangan shartnomalarga muvofiq ish beruvchilarni belgilangan muddatlarda bitiruvchilar bilan ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasasining barcha tegishli bo'linmalari bilan talabalar qabuli va bitiruvchilarni ishga taqsimlash rejalarini muvofiqlashtirish.

V. Markazning huquqlari va majburiyatlari

6. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

- markaz vakolatlariga kirgan zaruriy ishlarini amalga oshirish uchun institutining tegishli bo'linmalaridan (ilmiy va uslubiy kengashlar, o'quv va uslubiy bo'linmalar, fakultetlar, kafedralar va hokazolar) axborotlar taqdim qilishni talab qilish;

- institutning professor-o'qituvchilari va ish beruvchi (iste'molchi) muassasa, korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini (kelishuv asosida) o'rnatilgan tartibda marketing tadqiqotlarini o'tkazish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash hamda ular haqidagi axborotlarni tarqatish tizimini loyihalash va tashkil qilishga jalb etish;

- DTS doirasida ish beruvchi (iste'molchi)larning talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda bitiruvchilarning kasbiy sifatlari va raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagoglik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish;

- ish beruvchilar (iste'molchilar)ning yosh mutaxassislar haqidagi fikrlari,

e'tirozlari, kamchiliklari va rad qilinishi sabablari va ta'lim sifatini oshirishga oid takliflarini tahlil qilish hamda ta'lim xizmatlari bozori talablariga javob beruvchi yangi avlod bitiruvchilarini shakllantirish bo'yicha, jumladan, tayanch oliy ta'lim muassasalariga tavsiyalar berish;

- ish beruvchilar (iste'molchilar)ning takliflari asosida mavjud ta'lim metodikasi (texnologiyalari)da kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashtirish bo'yicha tegishli muassasa, korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

- bitiruvchilar to'g'risida reklamalar mazmuni va ommaviy axborot vositalari, bosma nashrlar orqali ma'lumotlar e'lon qilinishi hamda iste'molchilarga yetkazilishi bo'yicha fakultetlar, taalluqli kafedralar faoliyati samaradorligini baholash;

- bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklarini namoyish qilish maqsadida oliy ta'lim muassasasi xodimlarining respublika va xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalar, uchrashuvlar va konferensiyalarda ishtirok etishini tashkil qilish;

- markaz faoliyatiga mas'ul xodimlarining ish faoliyati natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish yoki choralar ko'rish bo'yicha takliflar kiritish.

7. Markaz quyidagi majburiyatlarga ega:

- ma'lumotlar bazasi va meyoriy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlash hamda tasdiqlatish uchun institut rektori hamda vazirlikka takliflar berish;

- institutda bitiruvchi talabalarning ishga joylashishi va uning monitoringi jarayonini mavjud talablar asosida tashkil qilish, ushbu jarayonga huquqiy-meyoriy va boshqa hujjatlarni, ulardagi talablarni to'la joriy etish.

VI. Markazning tuzilishi va moliyaviy ta'minlanishi

8. Markaz faoliyatini bo'lim xodimlari amalga oshiradi.

9. Markaz faoliyatiga mas'ul bo'lgan xodimlarga ish natijalariga ko'ra rektor tomonidan belgilangan tartibda institutning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qo'shimcha ustamalar belgilanadi.

VII. Markaz faoliyatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish

10. Markaz o'z faoliyati natijalari bo'yicha O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kengashida har yili kamida bir marta hisobot beradi.
11. Markaz tegishli ma'lumotlarni belgilangan shakl va muddatlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi.
12. Markaz faoliyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va o'rnatilgan tartibda nazorat qilinadi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

13. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.
14. Mazkur Nizom institut Kengashining majlisida muhokama qilinib qabul qilingan hamda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, o'quv bo'limi boshlig'i, xodimlar bo'limi boshlig'i, yuriskonsult, institut kasaba uyushmasi raisi va Karyera markazi bo'limi boshlig'i bilan kelishilgan.


KELISHILDI:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor



Sh.M.Ergashev

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



S.X.Madiyev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor



B.Ch.Yakubov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



S.T.Turatov

Xodimlar bo'limi boshlig'i



S.N.Ermatova

Kor Yuristkonsult



A.Mamatqulov

Kasaba uyushmasi raisi



B.Yuldashev

Nizom ijrosiga ma'sul:

Karyera markazi bo'limi boshlig'i v.b.
(yuklatilgan)



M.E.Jumayev